

O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi

1. Iste'mol narxlar indeksi va inflyatsiya darajasi

2017 yilning 10 oyligida tovar va xizmatlar narxlar darajasi 9,3 % ga o'sgan. Jumladan oziq-ovqat mahsulotlari 9,4 % ga, nooziq-ovqat mahsulotlari 10,3 % ga va xizmatlar 7,2 % ga ko'tarilgan.




Iste'mol narxlar indeksining 2017 yil yanvar-oktabr oylari uchun o'rtacha o'sishi sur'ati tahlili, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari narxlarining o'sish sur'atlari xizmatlar narxlaridagi xuddi shunday o'zgarishlarga nisbatan ko'proq ta'siri ko'rinib turibdi. Masalan, tovarlarning jami inflyatsiyaning o'sish ta'siriga ulushi (hissasi) 83,9 % ni, xizmatlar esa atigi 16,1 % ni tashkil qildi.

2. Oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlar indeksi

Yuqorida ta'kidlab o'tilgandek, oziq-ovqat mahsulotlari yil boshidan davri uchun o'rtacha 9,4%ga qimmatlab, iste'mol narxlar indeksini umumiy o'sishiga 4,1%ni qo'shgan (iste'mol narxlar indeksi jamlanmasiga ta'sir ulushi – 44,3%).

2017 yilning 10 oyi davomida oziq-ovqat inflyatsiya dinamikasi jarayoni notekis edi. Narxlarning sezilarli o'sishi fevral (1,9%ga) va oktyabrda (1,7%ga) oylarida bo'ldi, pasayishi esa iyun va iyul oylariga xos bo'ldi (o'z navbatida 1,0%ga va 0,7%ga).

Bunda, 2016 yil dekabr oyiga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari o'rtacha narxlarining eng yuqori o'sish darajasi quyidagi guruhlariga to'g'ri keldi:




Meva va sabzavot mahsulotlarining mavsumiy narx o'zgarishlari joriy yilda yanvardan-aprelgacha o'sishi va maydan-sentabrgacha pasayishi tendensiyasi ifodalanildi. Oktyabr oyida ushbu guruhda umumiy o'sish sharoitida ham, karam – 18,0%ga, piyoz – 12,8%ga, sabzi – 9,0%ga va kartoshka – 2,1%ga narxlarni pasayishi kuzatildi.

Meva-sabzavot mahsulotlari va qayd etilgan oziq-ovqat tovar guruhlarning narxlari o'zgarishi, iste'mol narxlari indeksini umumiy o'sishiga qariyb 3,6%ni tashkil qildi (iste'mol narxlari indeksi jamlanmasiga ta'sir ulushi – 38,5%).

3. Nooziq-ovqat mahsulotlari iste'mol narxlari indeksi

2017 yilning 10 oy davomida nooziq-ovqat mahsulotlar uchun narxlar dinamikasi barqaror o'sish tendensiyasi bilan xarakterlanadi. Nooziq-ovqat mahsulotlar oyida o'rtacha 1,0%ga qimmatlashib kelgan, yil boshidan esa – 10,3%ga ko'tarilgan.



Nooziq-ovqat mahsulotlarning narxlar holatiga ta'sirining asosiy omillaridan yengil avtomobillar – 50,2% ga, tamaki mahsulotlari – 17,8% ga, shaxsiy gigiena mahsulotlari – 14,7% ga, gazlama va eshilgan iplar – 14,6% ga, asosiy maishiy mahsulotlar va elektr asboblari – 11,5% ga, yuvish va tozalash vositalari – 11,2% ga, aloqa vositalari va qurilish mollari – 10,7% ga, maishiy to'qimachilik mahsulotlari – 10,4% ga, kiyim va oyoq kiyim – o'z navbatida 10,9% ga va 10,2% ga narxlarining ko'tarilishi ta'sir qildi.

Narxlarning o'sib kelishi iste'mol narxlari indeksini umumiy o'sishiga 2,9% ni qo'shgan (iste'mol narxlari indeksi jamlanmasiga ta'sir ulushi – 31,1%).

4. Xizmatlar iste'mol narxlari indeklari

Axoli uchun pullik xizmatlar sohasida ta'riflar 2017 yil yanvar-oktabrda 7,2% ga oshgan, bu o'z navbatida iste'mol narxlari indeksini umumiy o'sishiga 1,5% ni qo'shgan (iste'mol narxlari indeksi jamlanmasiga ta'sir ulushi – 16,1%).

Xizmatlarning inflyatsion omillardan aloqa xizmatlari – 23,8% ga, madaniyat muassasalari xizmatlari – 14,7% ga, maktabgacha ta'lim muassasalari xizmatlari – 8,3% ga, yo'lovchi transporti xizmatlari – 6,9% ga, uy-joy kommunal xizmatlari – 6,8% ga, maishiy xizmatlar – 4,6% ga ta'riflarni ko'tarilishi.

Qayd etilgan xizmat turlarini o'sishi iste'mol narxlari indeksini umumiy o'sishiga qariyb 1,4% ni qo'shgan (iste'mol narxlari indeksi jamlanmasiga ta'sir ulushi – 15,0%).

Narxlar statistikasi boshqarmasi

Murojaat uchun shaxs: Irgashev B.S.

Telefon: 230-80-38